

BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 910-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda "Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 910-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqlikni ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalar tomonidan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilingan;

Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizom;

Davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatiga oid hisobotni e'lon qilishda (*jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish*) hisobotga kiritiladigan ma'lumot (axborot)larning namunaviy ro'yxati tasdiqlangan.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda - Vazirlik)ning 2025-yil 6-yanvardagi 2/5-son buyrug'i qabul qilingan va ushbu buyruq bilan tizimdagi korxona, tashkilot va muassasalar, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalariga buyruqning ilovasida belgilangan ma'lumotlarning o'z rasmiy veb-saytlarida, Ochiq ma'lumotlar portali va boshqa axborot resurslarida belgilangan muddatlarda, ularning haqqoniyligini ta'minlagan holda, to'liq hajmda e'lon qilinishini ta'minlash vazifalari yuklatilgan.

Vazirlikning mazkur buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. "O'zbektelekom" AK (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) boshqaruv raisining o'rinbosarlari, ijroiya apparatining tegishli departament direktorlari, boshqarma, xizmat va bo'lim boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 910-son qarorini hamda Vazirlikning 2025-yil 6-yanvardagi 2/5-son buyrug'ini ma'lumot va ijro uchun qabul qilsinlar.

2. "O'zbektelekom" AKning rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi

lozim bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar va mazkur ma'lumotlarni taqdim etuvchi mas'ullar ro'yxati (keyingi o'rinlarda - Ro'yxat) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mas'ul etib belgilangan ijrochilar ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni Ro'yxatga ilova qilingan namunaviy shakllar asosida o'z vaqtida, sifatli tayyorlangan holda Komplaens departamentiga taqdim etib borsinlar.

4. Belgilab qo'yilsinki, Kompaniya Ochiqlik indeksi bo'yicha yuqori natijalarga erishishi uchun tegishli ma'lumotlar o'z vaqtida Komplaens departamentiga taqdim etilishiga mas'ul ijrochilar shaxsan javobgardirlar.

5. Komplaens departamenti (R. Toshpo'latov), boshqaruv raisining axborot masalalari bo'yicha maslahatchisi (T. Mamadjanov), Murojaatlar bilan ishlash va nazorat departamenti (F. Xalmatov):

Kompaniyaning rasmiy veb-saytida ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'g'ri va to'liq joylashtirilishini nazoratga olsinlar;

Ochiqlik indeksi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni boshqaruv raisiga (ushbu badda belgilangan har bir ijrochi tomonidan alohida) har chorak yakunida kiritib borsinlar;

Kompaniya Ochiqlik indeksi bo'yicha yuqori natijaga erishishi uchun tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki sifatsiz tayyorlangan holda taqdim etgan mas'ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi yuzasidan takliflar kiritib borsinlar.

6. Boshqaruv raisining axborot masalalari bo'yicha maslahatchisi (T. Mamadjanov), Murojaatlar bilan ishlash va nazorat departamenti (F. Xalmatov), Marketing departamenti (D. Adilov) va Komplaens departamenti (R. Toshpo'latov) joriy yil **5-martga qadar** Kompaniyaning rasmiy veb-saytini Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 910-son qarori bilan belgilangan talablarga muvofiqlashtirish choralarini ko'rsinlar.

7. Ushbu buyruqning bajarilishi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



N. Xasanov